

JADID MA'RIFATPARVARLARI ASARLARIDA OLMOSHLAR
TAHLILI

Ibodullayeva O'g'iloy

Samarqand davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: O.Yusupova

Dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikning morfologiya bo'limiga kiruvchi olmosh so'z turkumi xususida mulohaza yuritiladi. Olmosh so'z turkumining etimologiyasi va ularning tarixiy variantlari, xususan, bugungi kundagi shakllari jadid ma'rifatparvarlarining ba'zi asarlari orqali ochib berildi.

Kalit so'zlar: O'zbek adabiy tili, davrlashtirish, jadid adabiyoti, olmosh, ko'rsatish, kishilik, so'roq olmoshlari.

Аннотация: В этой статье рассматривается категория местоимений, которая является частью раздела морфологии лингвистики. Этимология группы слов местоимений и их исторические варианты, особенно сегодняшние формы, были раскрыты в некоторых работах джадидских просветителей.

Ключевые слова: узбекский литературный язык, периодизация, джадидская литература, местоимения, указательные, личные, вопросительные местоимения.

Annotation: this article is reflected on the pronoun category, which is part of the morphology section of linguistics. The etymology of the pronoun series and their historical variants, in particular today's forms, was revealed through some works of the Jadid enlightenment.

Keywords: Uzbek literary language, periodization, jadid literature, pronoun, show, personality, interrogative pronouns.

Jamiyat tarixi qanday voqea va hodisalarni bosib o'tgan bo'lsa, tilimiz ham aloqa-aralashuv vositasi sifatida xuddi shunday tarixga ega. Ushbu tadqiqotimizda aynan mana shunday muhim masalaning ba'zi jihatlarini olmoshlar mavzusida ko'rib chiqdik. O'zbek tilshunosligida olmoshlar tadqiqiga bag'ishlangan sezilarli ishlardan biri B.Yusufovning kuzatishlari bo'lib hisoblanadi. Olimning "Eski o'zbek adabiy tilida olmoshlar XV-XVI asrlar" deb nomlangan monografiyasida Alisher Navoiy va uning zamondoshlari asarlarida, XV-XVI asrlarda yuzaga kelgan yozma yodgorliklarda o'z ifodasini topgan, olmoshlarning barcha turlari aniqlangan va tavsiflangan. Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilgan va qo'llanilayotgan olmoshlarning asosiy leksik-grammatik hamda semantik farqlari, o'ziga xos xususiyatlari ishonchli dalillar asosida ko'rsatib berilgan.¹³ Shu nuqtayi nazardan S.E.Malov o'zbek adabiy tili tarixini 3 davrga,

¹³ ЮСУПОВА О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционалстилистик хусусиятлари. Монография. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2017. –Б. 6.

A.N.Samoylov ham 3 davrga, A.M.Shcherbak 4 davrga, O.Usmonov 5 davrga, G.Abdurahmonov esa 6 davrga bo‘lib o‘rganadilar.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari umumiyashtirilib, o‘zbek tili tarixi quyidagicha davrlashtirilgan. Ya‘ni u 3 davrni o‘z ichiga qamrab oladi. Bular:

I. Qadimgi turkiy adabiy til davri [VII asrdan XIII asrgacha]

II. Eski o‘zbek adabiy tili davri [XII-XIX asrlar]

III. Hozirgi o‘zbek adabiy tili [XIX-XX asrlar]

Demak, o‘zbek tili tarixi mana shunday davrlarga bo‘linar ekan, biz jadid davri, ya‘ni eski o‘zbek adabiy tili davrida yaratilgan ayrim asarlarni o‘rganib, ushbu asarlar tarkibidagi olmoshlarni tahlil qilib chiqamiz.

Jadid [arabcha-yangi] adabiyoti namoyandalari xalqni birlashtirish, vatanparvarlik, ozodlik, erkinlik, ilm olish kabi ezgu g‘oyalarni ilgari surgan holda, xalqimizning ma‘naviy boyligiga aylangan qimmatli asrlarini yozib qoldirishgan. Jumladan, o‘zbek adibi Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasi 1924-yilda chop etiladi va ushbu asar o‘zbek adabiyoti tarixida yozilgan ilk tarixiy pyesa sifatida e‘tirof etiladi. Tadqiqotlarimiz davomida dramada olmoshlarning umumiy soni 1082 tani tashkil etishi aniqlandi.

Ushbu asardagi olmoshlar qatnashgan ayrim jumalarni tahlil qilib o‘tamiz.

Ul menga do‘st bo‘lsa, nega bukungacha qizini yubormaydir?! [Abulfayzxon, 183-bet].

Ushbu gapdagi ul olmoshi so‘zlovchiga masofa jihatdan uzoqroq bo‘lgan predmet va uning belgisini ko‘rsatish uchun qo‘llangan. O‘sha davrlarda ul olmosh qo‘llangan bo‘lsa, hozirgi kunda uning varianti u olmoshi iste‘molda hisoblanadi.

Menim butun qayg‘um shulardandir. [Abulfayzxon, 184-bet.]

XIII-XIV asrlarga oid bir qator yodgorliklarda kishilik olmoshlarining I shaxs birligi va ko‘pligiga qaratqich kelishigi affiksi –im shaklida ham qo‘shilgan, ya‘ni odatdagi mening, bizning shakllari o‘rnida menim, bizim shakllari qo‘llangan. Menim, bizim shakllari qadimdan o‘g‘uz guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo‘lib, hozir ozarbayjon, turk, gagavuz, qrim tatarlari, no‘g‘ay kabi tillarda qo‘llanadi. Bugungi kunda adabiy tilimizda asosan mening shakli qo‘llaniladi.

Kichkinagina bir erkalik uchun uni o‘ldirmak nechuk bo‘lar ekan? [Qozi Nizom, 183-bet].

Nechuk so‘zi o‘g‘uz shevasiga xos so‘z bo‘lib, qadimgi turkiy tilda bir necha taraqqiyot davrlarini bosib o‘tgan: ne+che-ne+che+ke-ne+che+k-nechuk. Ikkinchi taxmin esa versiya hodisasi tufayli: ne +chag//ne+chaq//ne+chek – nechuk, va bugungi kunda o‘zbek adabiy tilida nima uchun tarzida ishlatiladi.

To‘xta, domullo! Menim yonimda har kun maxtab turg‘aning Hakimbiy inoq Nodir shoh bilan nechun xabarlashadir? [Abulfayzxon, 184-bet].

Ushbu gapdagi nechun//nevchun olmoshi chun ko‘makchisi ishtirokida shakllangan va sabab ma‘noli so‘roq olmoshi bo‘lib, hozirgi adabiy tilimizda uning muqobil varianti nima uchun qo‘llaniladi

-Hech kim onglamadimi? [Abulfayzxon, 187-bet].

-Kimsa onglag‘an emas. [Ulfat, 187-bet].



Kimse gumon olmoshi eski o'zbek tilining barcha davrlaridakeng qo'llangan. U kishilarni taxminlash, tasmol qilish kabi ma'nolarni bildirgan. Bugungi adabiy tilimizda esa kimsa gumon olmoshi sifatida ishlatiladi.

Bunday qilmasak, ne bo'lmasun, urushamiz deb chiqsak, birinchi uchrashinda yengilamiz. [Hakimbiy,193-bet].

Ne so'roq olmoshi eski o'zbek tilida keng qo'llangan va to'liqsiz fe'llar bilan birga qo'llana olgan. Buni yuqoridagi gapda ham ko'rishimiz mumkin. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'proq uning o'rniga nima so'roq olmoshi ishlatiladi.

Elni qayon surarsan

Dunyo, dunyo... [Qalandar,194].

Qayan olmoshi o'rin bilan bog'liq bo'lgan so'roqni bildirgan. Qayan so'zidagi yan o'rin oti, qаны so'zidagi -ы esa egalik affiksidadir. O'sha davrlarda ushbu olmosh keng qo'llangan bo'lsa, bugungi kunda uning o'rnida qayerga so'roq olmoshi ko'proq ishlatiladi.

Navbatdagi asarimiz o'zbek sovet adabiyoti namoyandasi H.H.Niyoziyning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" tragediyasi bo'lib, 1915-yilda yozilgan va 1916-yilda toshbosma usulida chop etilgan. Bu asarda olmoshlarning umumiy turlari bo'yicha 516 o'rinda qo'llangani tadqiqotlarimiz davomida isbotlandi. Quyida shu asardan keltirilgan ayrim parchalar orqali olmoshlar tahlilini ko'rib o'tamiz.

Durust, men, faqira eski maktabdagina tahsil etdim, lekin har bir insoniyat hayot masalalarin Sizing marhamatingiz va ma'naviy yordamingiz orqali tanidim... [Mahmudxon,109-bet].

Faqir – moddiy jihatdan muhtoj, nochor, kambag'al, qashshoq odam.Ba'zi kishilar(shoirlar, mualliflar, xattotlar) "men"so'zi o'rnida o'zlarini kamtarlik bilan shunday atashgan. Ya'ni faqir so'zi men olmoshi o'rnida qo'llanadi.

Men qaysi vijdonim bila mundin yuzimni o'girayin. [Mahmudxon,109-bet].

Ayrim manbalarda ba'zan kelishik affiksi qo'shilganda, bu olmoshi tarkibidagi [b] undoshining o'rniga [m] undoshi qo'llanish hollari ham uchraydi. Hozirgi adabiy tilimizda esa bundan shakli keng qo'llaniladi.

Oxirgi qimirlaganim shul shekillik. [Maryamxonim,119-bet].

Shul (ush/osh/sh+ul) olmoshi bu, shu, oshul, oshal olmoshlarining fonetik o'zgargan va qisqargan shaklidir.Hozirgi kunda adabiy tilimizda shu va bu variantlari keng ko'lamda ishlatiladi.

Nechuk honim, taklifsizgina tashrif etdingiz? [Mahmudxon,110-bet].

Nechuk so'zi o'g'uz shevasiga xos so'z bo'lib, qadimgi turkiy tilda bir necha taraqqiyot davrlarini bosib o'tgan: ne+che-ne+che+ke-ne+che+k-nechuk. Ikkinchi taxmin esa versiya hodisasi tufayli: ne +chag'//ne+chaq//ne+chek – nechuk, va bugungi kunda o'zbek adabiy tilida nima uchun tarzida ishlatiladi.

Jadid adabiyotiga oid yana bir asar, inqilobiy g'oyalar emas, balki ma'rifatchilik, komillik qarashlari ilgari surilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush"dramasi hisoblanadi. Ushbu dramada ilmsizlik tufayli johillikka qo'l urgan bolaning holi aks ettirilgan. Asardagi olmoshlarni tahlil qilar ekanmiz, ularning umumiy turlari bo'yicha

198 o'rinda qo'llangani o'z tasdig'ini topdi. Endi esa asardan olingan ayrim parchalar orqali olmoshlarni tahlil qilamiz.

Xolbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilur, mulloni bo'lsa, barcha xalq izzat qilur, ya'ni mulloni ilmi izzat qilinadur. [Domullo,41-bet].

Alar so'zi asosan XV-XVI asrlarga oid manbalarda qo'llangan. Shu bilan birga ushbu so'z asosan Xorazmda yaratilgan asarlarda ishlatilgan. Eski o'zbek tilidagi kishilik olmoshlarining asosiy qismi qadimgi turkiy hamda XI-XII asrlarga oid yozma manbalarda ham qo'llangan.

Ul janobi haqqoniy domulloni topib, ziyorat qilmoq kerak. [Ziyoli,42-bet].

Ul ko'rsatish olmoshi kishilik olmoshining III shaxs birligii bilan shaklan o'xshash va ma'nosiga ko'ra bu ko'rsatish olmoshiga qarama-qarshi bo'lib, vaqt va masofa jihatdan so'zlovchidan uzoq bo'lgan narsani, shaxsni, voqea-hodisani ko'rsatadi. Ul ko'rsatish olmoshining hozirgi o'zbek tilidagidek u shaklida qo'llanishi yozuv yodgorliklarida asosan XIX asrdan boshlab kuzatiladi. Oldingi davrlarga oid manbalarda esa "Najohul farodis"da va Lutfiy asarlarida qayd qilindi.

Ushbu sababli muddaoni tabdil qilib, ilm to'g'risidan sizga bayon qilmoqni qasd etdim. [Ziyoli, 43-bet].

Ushbu ko'rsatish olmoshi ush ta'kid yuklamasi va bu ko'rsatish olmoshining birikuvidan tashkil topgan tarkibli olmoshdir. Bu olmosh nutq paytida mavjud bo'lgan narsa, shaxs, voqea-hodisani ta'kidlab ko'rsatish ma'nosini ifodalovchi vosita sifatida yozuv yodgorliklarida keng iste'molda bo'lgan. Shuningdek, hozirgi adabiy tilimizda keng ko'lamda ishlatiladi.

Bah, ne vor, bilursin, Liza banga demishki, o'n besh manatsiz banga kishi ko'ndarma. [Artun, 46-bet].


XI asr tilida I shaxs kishilik olmoshlari birligining turli shakllarda qo'llanishi, Mahmud Koshg'ariyning ko'rsatishicha, dialektal xususiyatga ega bo'lgan, ya'ni I shaxs birligi o'g'uzlarda ben[ban] tarzida talaffuz qilingan. Ushbu shakli "O'g'uznoma"da ham uchraydi. Hozirgi adabiy tilimizda esa men shakli kengroq qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilimizning tarixiy taraqqiyoti asrlar davomida buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Yuqoridagi asarlarda ayrim olmoshlarninggina tarixiy shakllari, qaysi manbalarda qanday shaklda qo'llanganligi, davrlar o'tib shakli o'zgarganligi va shunga o'xshash ba'zi mulohazlar keltirib o'tilganligini hisobga olib aytadigan bo'lsak, olmoshlarning kichik bir jihatini ko'rib chiqdik deb ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurauf Fitrat. "Tanlangan asarlar". -Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2000-yil.

2. Abdurahmonov G'., Sh.Shukurov. "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi". – Toshkent, 1973-y.



3. Rahmonov N., Sodiqov Q. “O‘zbek tili tarixi”. - Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2019-yil.
4. Yusupova O. “O‘zbek tilida olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari”. - Samarqand, 2017-yil.
5. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova SH. “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi, Morfologiya”. - Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2001-yil.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi.
7. Sayfullayeva R., Qurbonova M., Mengliyev B., Boqiyeva G. Hozirgi o‘zbek tili. (Kirish, Fonetika-fonologiya, Grafika, Talaffuz va imlo, Leksikologiya, Frazzeologiya, Leksikografiya). - Toshkent, 2005. 181- b.

